O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
MA`NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY KENGASHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI

RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI

# "SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI"

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami**

***2023-yil 20-aprel***

**Foydalanilgan adabıyotlar:**

1. Fokina N.N. Give the child peace. Bilingual children are at home everywhere. M.: Special book, 2015.-159p.

2. Nizomiddinovna H. N., Gulnigor Y. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI O 'STIRISHDAGI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 122-126.

3. Nizomiddinovna H. N. et al. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQ VA INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 1323-1327.

4. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. "The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2.2 (2022): 170-174.

5. G'aforovna J. H. SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 3. – С. 1-4.

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMI MAZMUNINI YANGILASH MEZONLARI

***Husenova Aziza Sharipovna***

*Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi tayanch doktoranti*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy qoidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma berilgan. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolayotganligi aytiladi. Davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi. Ona tili va o„qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali

ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va oʻqish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligi tanlab olingan matnlarning bolalarbopligi, qiziqarliligi, hayotiyligi va oʻquvchilarni fikrlashga yoʻnaltirilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Oʻqish va tushunish mahorati va ona tilini oʻrganish darslaridagi ushbu bosqich bir qancha yoʻllarini rivojlantirish va ulardan darsda barcha yosh oʻrganuvchilar uchun foydalanishni oʻz ichiga oladi. Hammamizga ma’lumki, tillarni oʻrganishda oʻqib tushunish mahoratini oʻrgatishda qizirarli va ijobiy tasirga ega, hech bir shubha yoʻqki, hozirgi kundagi eng samarali oʻqitish metodlaridan biri bu “Kommunikativ oʻqitish va oʻrganish” eng munosibidir.

Boshlangʻich ta’limda oʻquvchilarni fikr bildirishga oʻrgatish koʻnikmasi oddiy gap tuzishdan boshlanib rasm yoki matnga munosabat bildirish, soʻngra kichik matn yaratish bosqichlarida kechadi. Bunday paytda oʻqituvchining faolligi, yondashuvi, innovatsion metod va usullarni qay darajada qoʻllay olishligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida oʻquvchida toʼgʻri, tez, ongli ifodali oʻqish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob oʻquvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga koʻtarish oʻqish orqali tevarak atrof borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish har qanday uslubdagi matnni oʻqish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash koʻnikmasini egallash nazarda tutiladi. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan boʻlsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Oʻqib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda oʻqib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar boʻladi.

Shu paytgacha ona tilini oʻqitishdan maqsad tilning grammatikasini oʻrgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga koʻproq urgʻu berilgan.

Eski darsliklar til strukturasini oʻrgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan koʻra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urgʻu berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor soʻz, uning ma’nolari, oʻrindoshlari, qoʻllanish oʻrinlari, lugʻat boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Amaldagi darslikdan oʻrin olgan matnlarda bola yoshiga mos boʻlishidan koʻra, didaktik ahamiyatiga urgʻu berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda

she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz boʻlishi mumkin boʻlgan soʻzlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin boʻlgan soʻzlar darslikning orqa qismida maxsus lugʻatga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha boʻlgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi boʻsh oʻrinlarni toʻldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda oʻquvchilarning eng ogʻriqli muammosi boʻlgan ogʻzaki javob beriladigan, oʻgzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini toʻldiradigan, oʻzi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan ogʻzaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.

**Xulosa.** Xulosa oʻrnida shuni aytish joyizki, yangi Oʻzbekistonni qurishimiz uchun avvalo ta'lim tizimimizni yangilashimiz,yangi gʻoyalar kiritishimiz, yangi islohotlar oʻtkazishimiz kerak. boshlangʻich ta'lim jarayonida oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi oʻquvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlangʻich ta'lim oʻquvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, oʻquvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan oʻquvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo boʻlib qoldi.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-5538-son farmoni.

2. 2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisidagi qarori.

3. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – C. 69.

4. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
5. Qoʻldoshev R. Maktab o ʻquvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 22. – №. 22.
6. Ona tili va oʻqish savodxonligi [Matn]: 2-sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma / I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. -128 b

## TECHNOLOGIES AND BASIC PRINCIPLES FOR BUILDING INFORMATION PROCESSING SYSTEMS DURING BENCH TESTS

***Choriyev Behruz***
*Navasibirsik State Technical University Faculty of Physics and Technology*

It is very difficult to find a unified and accurate definition of building information modeling (BIM) because the definition depends mainly on the nature of the people who deal with this technology. At a time when the contractor considers BIM as a process, the designer defines it as a set of 3D models while researchers and specialists know BIM as a conceptual instrument used in construction (Allan, 2016). There are attempts to define this technology where it is possible to define the building information modeling as the creation of a digital model via a computer this model simulates in its detail the physical and functional characteristics of the structure, to enhance accuracy in the various construction phases of planning, design, construction, and operation [1]. Also, BIM can be defined as a digital visualization instrument that contributes to increasing the communication between the architectural and engineering details of the building through the flow of a stream of unified information for all participants in the implementation of the project (Geetanjali, 2011). The most acceptable definition is what the US National Building Information Model Standard (NBIMS-US) suggested "Building Information Modeling (BIM) is a digital representation of the physical and functional characteristics of the facility [1-3]. BIM is a common knowledge source for obtaining information about a facility that forms a reliable basis for decisions throughout its life cycle; defined as having existed since the earliest perception of demolition" (Xingchen, 2019). National Institute of Building Sciences (NIBS) defines building information modeling as a "digital representation of the physical and functional properties of the facility. As such it serves as a common knowledge source of information about a facility that forms a reliable basis for decisions during its life cycle from

**Xudoyberdiyeva D, Otajonov Sh, Eshchanov B.** Kvant - kimyoviy hisoblashlar asosida molekulalarning elektron tuzilishi va spektroskopik parametrlarini aniqlash……1180
**Xudayberdiyeva S.** Lingvistik qobilyatlarning oʻrganish boʻyicha yondashuvlar……1184
**Худояров Л.** Рақамли хизматлар корхона рақобатбардошлиги оширишнинг омили сифатида……1189
**Xo'jamberdiyeva S., Xasanova M.J.** Sharq mumtoz adabiyotida no'shiravoni odil timsoli……1194
**Xursanov F.** Sifatli ta`lim – taraqqiyot poydevori……1197
**Xusanova D., Yusubov J.** Ilm-fan taraqqiyotida ta'lim tizimidagi islohotlarning o'rni……1201
**Hamroyeva M., Norqulov M.** Lishayniklarning tibbiyotda qo'llanilishi……1205
**Xamrayeva M.** Alohida ta'lim olishga extiyoji bo'lgan bolalarda o'yin terapiyasini qo'llanilishi ……1208
**Hamroyeva N., Hotamova I.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning intelektual qobiliyatlari va uning turlari……1212
**Husenova A.** Ona tili va oʻqish savodxonligi ta'limi mazmunini yangilash mezonlari……1214
**Choriyev B.** Technologies and basic principles for building information processing systems during bench tests……1217
**Choʻliyeva N.** Zamonaviy nasrda badiiy zamon va makonning metaforiklashuvi……1220
**Shodmonova F.** Ways to eliminate dysarthria through the logopedic effect system……1223
**Шакиров И.** Источниковедение и историография двустороннего сотрудничества узбекистана и стран асеан……1227
**Hakimova D.** "banklarning faoliyat samaradorligini baholash modeli"……1230
**Шарипов Д., Шамсиева Ў.** Тинчлик – тараққиёт асоси……1234
**Sharipova M., Islomova M.** Maktabgacha ta'lim tizimida etnik-madaniy ta'lim tizimi……1238
**Шарипова Н., Хусанов М.** Язык - как средство пропаганды и манипулирования общественным сознанием……1241
**Шаропова Н.** Произведения х.тухтабаева на русском языке……1245
**Шукуров У.** Повышение качества образования путем совершенствования теоретико-методологических основ промышленного комплекса……1249
**Шукуров У.** Совершенствование теоретико-методологических основ промышленного комплекса регионов……1253
**Shukurova M., Fayzullayeva K.** Masalalarni yechish orqali matematik tasavvurni kengaytirish……1257
**Ergashova M., Husanbayev D.** Geofizik usullar yordamida muxandislik-geologik masalalarni yechish (koʻk gumbaz yodgorligi misolida)……1259

# “SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to`plami**

***2023-yil 20-aprel***

Konferensiyaning telegramdagi rasmiy kanali

**https://t.me/STTP_UZ**